



# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz  
@ferghana\_medical\_institute  
@farjsti

16-  
yanvar  
2024-yil  
juma

2023  
yilning  
11-12 (28)  
sonlari

## FAXRIY PROFESSORLARIMIZ SONI YANA BITTAGA KO'PAYDI



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori **Ulug'bek Soliyevga Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining FAXRIY PROFESSORI diplomi topshirildi.**

Diplomni institutimiz rektori tantanali ravishda jonkuyar ustoz, fidoiy xodim U.Soliyevga taqdim etdi. Ulug'bek Soliyev ta'lim sohasida mehnat faoliyatini 1985-yildan boshlagan, 40 dan ortiq ilmiy maqolalar va tezislarni muallifidir. Serg'ayrat ustozni ushbu katta yutuq bilan qutlaymiz! Ta'limni rivojlantirishga qo'shayotgan hissalarini bardavom bo'lsin!

### Minbar

## INSTITUT HAYOTIDA YANGILIK

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti 2020 yilning 3 dekabrda Prezidentimiz qarori asosida tashkil etilgan bo'lib, o'tgan qisqa davr mobaynida katta yutuqlarga erishdi, xalqaro nufuzli reytinglarda e'tirof etildi.



**Ulug'bek BOLTABOYEV,**  
o'quv ishlari bo'yicha  
prorektori.

Bugun oliyog'ohda o'qituvchi va talabalarga katta imkoniyatlar eshigi tobora keng ochilmoqda. Xususan, ta'lim va ilmiy faoliyatning ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratilgan, tibbiyotga zamonaviy innovatsion va ilmiy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish maqsadida xorijning shu sohadagi ta'lim muassasalari hamda klinikalari bilan muntazam hamkorlik

aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Joriy o'quv yili boshida Qozog'istonda o'tkazilgan Yevrosiyo dermatovenerologiya sohasiga oid ilmiy konferensiya doirasida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti va Ostona tibbiyot universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Shuningdek, Samarqand shahrida o'tgan O'zbekiston – Rossiya xalqaro sog'liqni saqlash forumida Kursk va Ural davlat tibbiyot universiteti, Sankt-Peterburg davlat pediatriya tibbiyot universiteti bilan hamkorlik va turli yo'nalishlarda qo'shma ta'lim dasturini yaratish bo'yicha memorandum va shartnomalar imzoladik.

Hindistonning Xaryana shtatida joylashgan Gurugram davlat universiteti bilan hamkorlik shartnomasiga ko'ra, ikki oliy ta'lim muassasasida farmatsevtika yo'nalishi bo'yicha qo'shma fakultet ochilib, talabalar Farg'ona oliyog'ohida va Gurugram davlat universitetida soha bo'yicha tahsil olmoqdalar.



Shuningdek, Hindistonning dunyo miqyosida yuqori reytingga ega "Venkateshwar hospital" klinikasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

O'tgan yilning oxirlarida oliyog'ohimiz hayotida yana bir muhim yangilik ro'y berdi. Yevrosiyo ta'lim va sog'liqni saqlash sifatini ta'minlash hamda akkreditatsiyadan o'tkazish markazi (YECAQA) tomonidan institut "Davolash ishi" mutaxassisligi bakalavriat bosqichining ta'lim dasturi uchun maxsus guvohnoma taqdim etildi. Dasturning xalqaro akkreditatsiya standartlariga muvofiq ekanligini tasdiqlovchi bu hujjat 2028 yilgacha amal qiladi.

Endilikda oliyog'oh bitiruvchilari dunyoning barcha davlatlaridagi nufuzli universitetlarda magistratura, ordinatura va doktorantura ta'lim yo'nalishlarida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritishadi. Shu bilan bir qatorda, diplom barcha davlatlarda xalqaro tan olinadigan maqomga ega bo'ladi.

### Bilasizmi?

## YANGI YO'NALISHDA 1 YILLIK REZIDENTURA JORIY ETILADI



**Yurtimizda birlamchi tizim tibbiyot xodimlari mehnati samaradorligini rag'batlantirish orqali oilaviy shifokor maqomini oshirish rejalashtirilmoqda.**

Xususan, "Aholi salomatligi —2030" milliy strategiyasi loyihasining 2024-2026-yillarga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga ko'ra, tibbiyot instituti bitiruvchilari uchun

oilaviy shifokorlik yo'nalishi bo'yicha-1-yillik rezidentura joriy etish ko'zda tutilyapti.

Bundan tashqari, rezidenturani tugatganlik sertifikatiga yoki litsenziyaga ega oilaviy shifokorlarning oylik ish haqini 2 barobarga oshirish mo'ljallanmoqda.

Bu ishlarni respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirish rejalashtirilgan.

**S.TURSUNOV.**



## THE ROLE OF ENGLISH IN MEDICINE

The English language is becoming not only a means of international communication, but also a common human language in various fields and also in medicine. If we talk about the field of medicine, it is difficult to build a career in English without knowledge of speech patterns, medical terminology and stable phrases. Knowledge of English language enables us to participate in various international medical conferences, after which we can cooperate with international colleagues in the field of health care. The main purpose of learning a foreign language in medical schools is the practical use of the foreign language as a professional communication, information activities and further self-education.

There are different methods of learning English. Nowadays, many medical students choose to learn special English on their own. But there is also a second method of learning with a specialist. If you have a language base and do not want to save

money to study with a specialist, self-study seems like a good choice. However, do not naively assume that you can make any progress in modern medicine by studying less than twice a week.

Today, the naming of many drugs and medicines is closely linked to the English language. And in this turn to medical institutions imported equipment is brought, many our compatriots go abroad for treatment, etc., they require extracts from medical records in a foreign language, the problem of medical translation is particularly urgent. From this we can learn that in medical translation any personal error can cost the patient's health, otherwise life. All predominant medical students of English language stressed that the 21st century is the century of English language. Practicing physicians as compared to students have a greater need for English language learning because of real contacts with colleagues from abroad and new opportunities in the scientific field. The need of knowledge of English is explained by the possibility of

### MEDICAL TERMS ARE IN ENGLISH AND LATIN

English	Latin
The spine	Vertebrae
The cervical spine	Vertebra lumbalis
Hiccup	Larynx
Kidney	Ren
Esophagus	Esophagus
Stomach	Ventriculus
Liver	Hepar
Lungs	Pulmo

reading foreign medical books and scientific publications. The point is that English is the international language of science, and foreign publications have much more up-to-date information also because the most up-to-date, constantly updated research base is located in foreign countries. Knowledge of this language provides a good opportunity to continue your studies abroad in the most developed countries, as well as future medics may receive internships in leading clinics around the world, such as the Bamrungrad International Hospital in Bangkok and the Mayo Clinic in the USA. After all, knowledge of a foreign language, especially English, is simply prestigious and once again testifies to our educational and intellectual level. As we can see, there are many reasons for a doctor to learn English. At the same time, the level of English to which one should aspire should be quite high. He should be able to read and fully comprehend even the most complicated medical text. He should also be able to hear English easily so that he should have no difficulty at all in dealing with colleagues from other countries. He should be able to speak English clearly enough so that he can understand every word, including some medical terms that may be difficult to pronounce. Of course, all doctors know Latin, which helps avoid any confusion of

medical terms. But Latin is a dead language. And we, future doctors, need a living language. Knowledge of English helps us to constantly improve our professional skills, which also internships in leading clinics around the world, such as the Bamrungrad International Hospital in Bangkok and the Mayo Clinic in the USA. After all, knowledge of a foreign language, especially English, is simply prestigious and once again testifies to our educational and intellectual level. As we can see, there are many reasons for a doctor to learn English. At the same time, the level of English to which one should aspire should be quite high. He should be able to read and fully comprehend even the most complicated medical text. He should also be able to hear English easily so that he should have no difficulty at all in dealing with colleagues from other countries. He should be able to speak English clearly enough so that he can understand every word, including some medical terms that may be difficult to pronounce. Of course, all doctors know Latin, which helps avoid any confusion of medical terms. But Latin is a dead language. And we, future doctors, need a living language.

**Farhodjon TURSUNALIEV,**  
Faculty of Medical Prevention and  
Public Health 3rd grade student.



## TALABALARGA AMALIYOT UCHUN HAQ TO'LANADI

Ma'lum bo'lishicha, hukumat qarori bilan "Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizom tasdiqlangan.

### G'OLIBLAR TANLOV ASOSIDA ANIQLANADI

Nizomga ko'ra, haq to'lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talabalar o'rtasida har yili kamida bir marotaba tanlov o'tkaziladi. Bunda amaliyot o'tash uchun 500 ta (Toshkent shahri uchun – 45 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun – 35 tadan) o'rin ajratiladi. Tanlovda ishtirok etish uchun talaba arizani shaxsan o'zi, pochta orqali yoki elektron shaklda o'zi o'qiyotgan oliy ta'lim tashkilotiga topshiradi.

### TANLOVDA QATNASHISH UCHUN TALABA:

- bitiruvchi bosqichda tahsil olayotgan bo'lishi;
- ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) tarmoq korxonasidagi faoliyat yo'nalishiga mos bo'lishi;
- O'zbekiston rezidenti bo'lishi lozim.

### TEGISHLI QONUN-QOIDALAR

Maxsus komissiya ushbu hujjatlarni kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida ko'rib chiqib, talabani tanlovda ishtirok etishi yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Maxsus komissiya tomonidan talaba amaliyotini tashkil etish ish rejasi himoyasi (taqdimot ko'rinishida) o'tkazilib, 20 kun ichida yakuniy qaror qabul qilinadi. Yakuniy qaror qabul qilingandan 10 ish kuni davomida tanlov natijalari bo'yicha ma'lumot Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.



### AMALIYOT MUDDATI

Amaliyot 1 oydan 3 ochgacha bo'lgan davr mobaynida o'quv rejasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Talabaning amaliyot o'tashi uchun sinov muddati belgilanmaydi. G'olib talabalarning amaliyoti bo'yicha xarajatlar Maxsus komissiya tomonidan yakuniy qaror qabul qilingandan so'ng 15 kun davomida qoplanadi. Bunda talabaga BHMning 2 baravari miqdorida ish haqi va unga hisoblangan ijtimoiy soliq tegishli hisobraqamiga o'tkaziladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu nizom harbiy va harbiylashtirilgan oliy ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

uz24.uz

## Mulohaza

## Aholining so'zlariga ko'ra, hududda kislorod kamayib bormoqda.

«Hozir yosh bolalar orasida ham, kattalarda ham yo'tal holatini ko'p ko'ryapman. O'zim, umr yo'ldoshim, nabiralarim ham yo'talyapmiz. Kislorod kamligidan tez-tez charchaydigan bo'lib qoldik. Bu havo tarkibida zararli moddalarning ortib borayotgani hisobiga. Qurilishlarning ko'payib borayotgani, Toshkent ko'chalarida yuk mashinalarining bema'lol yurayotgani, zavod va korxonalaridagi havoni tozalash tizimlarining yaxshi ishlamasligi sababli havo ifloslanmoqda. Agar ishlab chiqarilayotgan qonunlar ishlasa, nazorat qilinsa va hech kim qonunlarni buzmasa, havo ifloslanmaydi, xalqimiz toza havodan nafas oladi», — deydi ular. Shuningdek, ekoblogerlar turli fleshmoblar bilan qatnashmoqda.

## EKOLOGIK VAZIYAT:

## Poytaxtda havo yomonlashdi, Farg'onadachi?



«O'zgidromet» ma'lumotiga ko'ra, o'tgan bir sutkadan buyon aynan mana shu mayda ko'zga ko'rinmas zarracha poytaxt havosi tarkibida jahon standartlarining ruxsat etilgan me'yoridan (REM) ancha yuqori, ya'ni "qizil" xavfda saqlanmoqda. REM-2.5 zarrachasi soch tolasidan 40 barobar mayda, ko'zga ko'rinmas zarracha hisoblanadi. Bu zarrachaning inson sog'lig'iga salbiy ta'siri bor. Uning muntazam havo tarkibida yuqori darajada qolishi inson salomatligi, o'pka to'qimalari orqali qonga o'tish xususiyatidan kelib chiqib paydo bo'ladigan kasalliklar, nafas yo'llari, allergiya, ko'z shilliq pardasi zararlanishi, teri kasalliklari, hatto saraton kasalligini ham keltirib chiqirishi mumkin" Xo'sh, mayda chang zarrachalari nima, qayerdan paydo bo'ladi, uning inson salomatligiga salbiy ta'siri bor haqiqatmi? Bu borada Farg'ona viloyatida vaziyat qanday? Shunday savollar bilan Farg'ona viloyat gidrometeorologiya markazi boshlig'i Muhiddin JO'RAYEV bilan suhbatlashdik.

– Qum va chang bo'ronlari o'simlik qoplami cheklangan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda sodir bo'ladigan xavfli atmosfera hodisasi sifatida ta'riflanadi. Kuchli shamol taqir va quruq tuproqdan ko'p miqdordagi organik va mineral changlarni ko'tarib, ularni yuzlab, minglab kilometrargacha uchirib boradi.

Chang zarralarining havoda qolish muddati ularning o'lchamlari, hajmi va ob-havo sharoitlariga bog'liq.

Nisbatan og'ir va yirik zarrachalar tezroq cho'kadadi, kichikroq zarrachalar esa kuchsiz shabada sharoitida ham yuqorida uchib yurishga ko'proq moyil bo'ladi. Shuningdek, chang atmosferadan yog'ingarchilik bilan yuviladi. O'rtacha hisobda, ular havoda bir necha soatdan 8-10 kundan ortiq muddatgacha saqlanib qoladi.

Qum va chang bo'ronlari changli tutun yoki changli to'zon – tuproqdan ko'tarilgan chang yoki qum zarralarining havodagi aralashmasi va kuchli shamol natijasida paydo bo'ladi. Demak, chang yoki qum bo'ronlari kuchli shamollar hududida, yaqinida yoki undan uzoqda sodir bo'lishi mumkin.

RM-2.5-mayda zarrachasi haqiqatan soch tolasidan 40 barobar mayda, ko'zga ko'rinmas zarracha bo'lib, inson sog'lig'iga salbiy ta'siri bor. Uning muntazam havo tarkibida yuqori darajada qolishi nafas yo'llari, o'pkadagi alveolalar orqali organizmga kirib boradi va qonga so'riladi.

Havoning ifloslanishi manbalariga to'xtaladigan bo'lsak, uning bir necha sabablari bor. Hozir qayerga qaramaylik, qurilishlar avj olganini ko'rish mumkin. Hududlarda aholi soni ortib bormoqda. Bu o'z-o'zidan oziq-ovqat va boshqa sanoat chiqindilarining ko'payishiga, yo'llarda avtomobillar sonining ortishiga olib kelmoqda. Chiqindilarning chirishi va avtomobillardan chiqayotgan tutunlar ham havoni ifloslantiradi.

Oxirgi paytlarda tabiat hodisalari bo'lmish yog'ingarchiliklarning kamaygani ham qurg'oqchilik uchun asos bo'lib qolmoqda. Oqibatda chang zarrachalarining yanada maydalashuviga, havoda muallaq turib qolishiga olib kelmoqda.

Afsuski, havoning aralash ifloslantiruvchi zarrachalar, shu jumladan, mayda chang bilan ifloslanishi ko'p sonli odamlarning sog'lig'iga salbiy ziyon yetkazishi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda bunday aralashmalarni o'lchaydigan avtomatik stansiyalar bosqichma-bosqich viloyat markazlariga o'rnatilmoqda.

Bundan tashqari, qum va chang bo'ronlari vaqtida gorizontal ko'rinishning pasayishi turli yo'l-transport hodisalariga olib kelishi mumkin.

Farg'ona viloyati atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan vodiya joylashganligi sabab, juda ko'p tabiiy va boshqa irrigatsiya tarmoqlari bilan ta'minlangan. Hududimizda Isfara, So'x, Shohimardon, Marg'ilonsoy, Isfayramsoy kabi bir qator

daryolar, ularning irmoqlari, kanallar mavjud. Shu bois, yoz oylarida namlik ko'rsatkichi o'rtacha 50 foizni tashkil etadi va boshqa hududlarga nisbatan yuqori sanaladi. Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangani uchun bizda chang manbalari hududi nisbatan kam.

Bir kunda uch marta hududlardagi avtomobil yo'llari, sanoat zonalarini, aholi yashash joylari va dam olish maskanlarida havodan namunalar olinadi.

So'nggi paytlardagi monitoring xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatimizdagi ekologik muhit yaxshi holatda saqlanib turibdi.

O'simliklarning nobud bo'lishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi va tuproq yuzasiga bo'lgan mexanik ta'sirlar hududlarda chang hosil bo'lishga moyillikni oshiradi. Inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan, suv havzalarining qurishiga olib keladigan sun'iy gidrologik o'zgarishlar ham qum va chang bo'ronlari xavfining oshishini keltirib chiqaradi.

Bilamizki, o'simliklar shamol oqimini, uning yer yuzasiga ta'sir qiluvchi kuchini kamaytirishi orqali mexanik to'siq hosil qiladi.

O'rmonlar va butazorlarni yo'q qilish, daraxtlar va ihotazorlar zichligini kamaytirish shamol tezligini oshiradi va uning oqimi bo'ylab tarqalgan chang zarralarining tutib qolinishini kamaytiradi. Shunday ekan, ob-havo sofligini saqlashning eng maqbul usullaridan biri ko'klamzorlashtirish, yashil hududlarni tashkil etishdir.

Shuningdek, ko'p qavatli uylar qurilishi bo'yicha loyihalarda tegishli sohalar mutaxassislari, ekologik muhitni, shamol oqimi yo'nalishlarini e'tiborga olishlari talab etiladi. Ayniqsa, mavjud baland turar joylar oralig'iga qo'shimcha uylar qurishdan avval mutasaddilar bu joylarda havoning bir maromda aylanishi va atrofdagi ko'klamzor hududlarga zarar yetkazib qo'ymaslikni o'ylab ish tutishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Suhbatdosh Mahiyora BOYBOBOYEVA.

**2023  
YILDAGI**

# DUNYO OLIMLARINING

## GEPATIT «B» GA QARSHI VAKSINA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LI TOPILDI

Germaniya va Shveysariya olimlari gepatitning ana shu turiga qarshi vaktsina samaradorligini oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikda izlanish olib bordi. Tadqiqot jonivorlarda sinovdan o'tkazildi.

Ma'lum bo'lishicha, "TherVacB" vaktsinasi samaradorligi uning tarkibidagi "CD4 T hujayralari" deb ataluvchi komponentlar miqdori, faolligi va javob reaksiyasi kuchiga bog'liq.

Soddaroq tushuntirsa, agar organizmda CD4 T hujayralari kam va ularning vaktsinaga javobi zaif bo'lsa, bu holda gepatit B virusiga qarshi antitanalar ishlab chiqarilmaydi.

Olimlar fikricha, vaktsina ta'sirini kuchaytiruvchi tegishli moddalar yordamida bu hujayralar sonini va emlashga nisbatan javob reaksiyasini oshirish mumkin.

Hozirda insonlarda klinik sinovdan o'tkazilmoqda.

"TherVacB" vaktsinasi, eng avvalo, gepatit V ning surunkali shakliga qarshi kurashishga qaratilgan.

## SUYAK SARATONI YANGI USULDA DAVOLANADI

Suyak saratoniga chalinganlarning besh yil ichida omon qolish darajasi atigi 42 foizni tashkil etmoqda. Bu, o'simta tez rivojlanib, birinchi navbatda, o'pka va miyaga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq.

Shu bois Buyuk Britaniyaning Sharqiy Angliya universiteti tadqiqotchilari yangi davolash usulini ishlab chiqdi. Olimlar yaratgan CADD522 preparati saraton metastazlarining tarqalishiga aloqador bo'lgan RUNX2 genini blokirovka qilishga xizmat qiladi.

Bu yangilik laborator sinovlarda suyak saratonini implantatsiya qilingan sichqonlarning omon qolish darajasini 50 foizga oshirdi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, mazkur davolash usuli kimyoterapiyaga nisbatan organizmga kamroq zarar yetkazadi. Soch to'kilishi va ovqat hazm qilish muammolari kabi toksik yondosh asoratlarga olib kelmaydi.

Dastlabki sinovlarda CADD522ning birlamchi suyak saratonini muolajasida samarali ekanligi tasdiqlandi. Endi yangi ixtiro insonlarda klinik bosqichda sinab ko'rilishi kutilmoqda.

## SARATONGA QARSHI DORILAR YARATISHNING SAMARALI YO'LI BORMI?

Rossiya va Misr olimlari o'zaro hamkorlikda saraton kasalligiga qarshi dori vositalarini yaratish jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish yo'lini topdi.

Buning uchun ikki yondashuv — molekulyar modelashtirish hamda hujayralarni o'stirish usullari umumlashtirildi.

Chunki hozirgacha ma'lum usulda onkologik xastalikka qarshi samarali preparat yaratish uchun polimer nanozarrachalarini olishga qaratilgan optimal birikma va texnologiyani tanlash kerak.

Negaki, ushbu o'ta mitti zarralar dorilarning saraton o'simtasiga tezroq va yaxshiroq etib borishga yordam beradi. Ammo bu usul uzoq vaqt talab etishidan tashqari, juda qimmatga tushadi.

Shu ma'noda, ikki yondashuv kombinatsiyasi dori vositalari xususiyatlari va ta'sirini eksperimentdan avval taxmin qilish imkonini beradi. Shu tariqa optimal tarkib shakllantirilib, samarasiz deb baholangan birikmalar undan chiqarib tashlanadi. Bu esa kasallikni tezroq va arzonroq davolash imkonini beruvchi dorilarni yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot chog'ida yangi usul saratonga qarshi preparat — karboplatin va uning muqobillarida sinab ko'rildi. Olimlar bu dorining yangi hosilalarini tahlil qilib, ularning biologik faolligini baholadi.

Yakunda polimer nanozarralari tarkibidagi yangi hosilalar saraton kasalligini davolashda yuqori natija berishi ma'lum bo'ldi.

## UYQUSIZLIK ASORATLARI KAMAYTIRILADI

Uyqusizlikning salomatlik uchun ziyoni katta. Bu omil bora-bora jiddiy kasalliklar va hatto erta o'limga sabab bo'lishi mumkin. Xitoyning Guanjou tibbiyot universiteti



olimlari ana shu salbiy oqibatlarni kamaytirish yo'lini topdi.

Buning uchun 40 yoshdan 73 yoshgacha bo'lgan 92 ming kishi tadqiqotga jalb etildi. Ularning salomatlik ko'rsatkichlari yetti yil davomida bilaklariga taqilgan akselerometr yordamida to'plab borildi.

Eksperiment davom etgan yetti yil ichida ishtirokchilardan 1074 nafari yurak-qon tomir, 1871 nafari saraton kasalligidan vafot etgani qayd etildi.

Sinov jarayoniga jalb etilganlar — kam uxlovchilar (6 soatdan oz), normal uyqu sohiblari (6-8 soat) va ko'p uxlaydiganlar (8 soatdan ortiq) guruhlariga ajratildi. Shuningdek, ularning jismoniy faollik darajasi past, o'rta va yuqori, degan uch mezon asosida toifalandi.

Yakunda kamharakat qatnashchilarda uyqusizlik yurak-qon tomir kasalliklaridan o'lim xavfini 69 foizga oshirishi ma'lum bo'ldi. Sutkasiga 8 soatdan ko'p uxlab, sportni e'tiborsiz qoldirganlarda esa saratondan o'lim xavfi 21 foizga yuqorilgan.

Sport bilan faol shug'ullangan ishtirokchilarda esa erta o'lim xavfi bilan uyqu davomiyligi o'rtasida bog'liqlik aniqlanmadi.

Shundan kelib chiqib, xitoylik olimlar uyqusizlik va uning asoratlarini jismoniy mashqlar orqali kamaytirish mumkin, degan xulosaga keldi.

## QON SARATONINI OLDINI OLISH MUMKIN

AQSHning Vanderbilt universiteti olimlari TCL1A genini bloklash keksa yoshli kishilarda qon saratonini rivojlanishiga to'sqinlik qilishini aniqladi.

Buning uchun 5000 dan ortiq kishining tibbiy ma'lumotlari tahlil qilindi. Natijada tadqiqotchilar xavfli qon hujayralari bo'linishini qo'zg'atuvchi genni topishga muvaffaq bo'ldi.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, endi TCL1A geniga yo'naltiriladigan dorilar orqali saraton hujayralari o'sishini to'xtatish mumkin.

Mualliflar fikricha, yosh o'tishi bilan inson organizmdagi bo'linuvchi hujayralar turli mutatsiyalarga uchraydi. Ularning aksariyati zararsiz.

Ammo keksa yoshli kishilarning 10 foizdan ortig'ida qon saratonini va yurak kasalliklarini keltirib chiqaruvchi mutatsiyalar rivojlanadi.

## NEFROTİK SINDROMDAN ISHONCHLI HIMOYALANISH YO'LI BOR EKAN

Buyuk Britaniyaning Bristol universiteti olimlari buyrak yetishmovchiligi profilaktikasiga doir yangi usulni kashf qildi.

Tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, ushbu metodika peshobda oqsil miqdori ko'payishi va albumin darajasi pasayishi bilan namoyon bo'ladigan nefrotik sindrom rivojlanish xavfini kamaytiradi.

Chunki ushbu alomatlar buyraklar faoliyatini izdan chiqarishi bilan ma'lum.

Olimlar fikricha, PAR-1 retseptorlari blokatorlari orqali mazkur kasallik rivojlanishining oldini olish mumkin.

Bristol universiteti xodimlari bunday blokatorlardan foydalanish steroidlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etadi, degan qat'iy xulosada.

## OLIMLAR QANDLI DIABETNI DAVOLASHNING YANGI USULINI TOPISHDI

AQSHning Uayl Kornell Medikal kolleji tadqiqotchilari qandli diabetdan xalos bo'lishning samarali usulini topganini ma'lum qildi.

Buning uchun maxsus oqsillar yordamida oshqozon ildiz hujayralaridan insulin ishlab chiqarishga mas'ul GINS hujayralari o'stirilib, tajriba sichqonlari me'dasiga ko'chirib o'tkazildi.

Ma'lum vaqtdan so'ng bu tadqiqot o'z natijasini ko'rsatdi. Transplantatsiya qilingan hujayralar insulin ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tasdiqlandi.

Mutaxassislar fikricha, mazkur yangilik qandli diabetning 1-turi va boshqa oshqozon osti bezi kasalliklarini davolashda katta samara berishi mumkin. Yakuniy xulosalar ma'lum qilinadi.



# KASHFIYOTLARI



## BRONXIAL ASTMA KASALLIGINI DAVOLASHDA YANGICHA USUL QO`LLANILADI

AQSH olimlari astma kasalligiga chalingan bemorlar immunitet tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, o'tkir yallig'lanish reaksiyasini to'xtatishning yangi usulini topdi.

Endi tadqiqotchilar xastalikning og'ir shaklida qo'llaniladigan ikkita muolaja turini sinovdan o'tkazmoqda.

Mutaxassislar fikricha, hozir astmaning og'ir shaklidan aziyat chekayotgan bemorlarda qo'llanilayotgan standart davo choralarini yuqori samaradorlikka ega emas. Shu bois, yangi muolaja usuliga ehtiyoj katta.

### Xo'sh, tadqiqot qanday kechdi?

AQSHning La-Xoyi Immunologiya instituti olimlari astmada o'tkir yallig'lanish reaksiyasini keltirib chiqaruvchi molekulyar mexanizmlarni o'rganib, ma'lum signallarni bloklash og'ir simptomlarni yengillashtirishini aniqladi. Ma'lumki, inson organizmida allergenlar aniqlanganda, Ye immunoglobulini (IgE) leykotsitlarning ma'lum bir turi bilan aloqaga kirishib, ularni gistamin ajraladigan omil — HRF ishlab chiqarishga undaydi.

Shu tariqa gistamin ta'siri allergik reaksiyani yuzaga kelitib, nafas olish jarayonini qiyinlashtiradi.

Tadqiqot davomida IgE va HRF o'rtasidagi aloqa xususiyatlari o'rganilib, astmani davolash uchun yangi "nishon" topildi.

Ayni paytda olimlar ikkita davolash usulini sinab ko'rmoqda. Birinchisi — o'tkir yallig'lanish reaksiyasini bartaraf etishga qaratilgan HRF-2CA molekulasini. Ikkinchi usul HRF o'rniga SPF7-1 antitanasining IgE bilan bog'lanishiga asoslangan.

Tez orada klinik sinovlar o'tkazilib, ularning natijalari e'lon qilinishi kutilmoqda.

## OSHQOZON SARATONINI ERTA BOSQICHDA ANIQLASHNING YECHIMI TOPILDI

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, muammoning eng asosiy omili kasallik sezilarli alomatlarsiz paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shu bois unga odatda ancha keng bosqichda tashxis qo'yiladi.

Yaponiyaning Nagoya universiteti olimlari izlanishlari endi bu muammoga yechim bo'lishi mumkin. Negaki, ular oshqozon saratonini qondagi SDF4 oqsili yordamida aniqlash mumkinligini isbotladi.

Mazkur oson, arzon va tezkor diagnostika usuli orqali xastalikka hatto dastlabki bosqichlarida ham deyarli 90 foiz aniqlikda tashxis qo'ysa bo'ladi.

Shu maqsadda o'tkazilgan tadqiqotga 80 nafar sog'lom inson va saratondan aziyat

chekayotgan 582 nafar bemor jalb qilindi.

Sinovlar jarayonida SDF4 oqsili darajasi oshqozon o'smasiga chalingan bemorlar qoni tarkibida yuqori bo'lishi qayd etildi.

## TADDIQOTGA 1400 NAFAR KO'NGILLI JALB QILINDI

Tanamizdagi ba'zi organlar o'zimizga nisbatan tezroq qariydi. Bu jarayon har bir ichki a'zoda turlicha kechishi mumkin. Oqibatda ma'lum yoshga yetgach, yurak, jigar, buyrak, o'pka, miya singari hayotiy muhim organlar bora-bora o'z funksiyasini bajarolmay qoladi.

AQSHning Stendford universiteti olimlari inson ichki a'zolarining qarish tezligini aniqlash usulini topdi. Buning uchun 20 yoshdan 90 yoshgacha bo'lgan 1400 nafar ko'ngilli tadqiqot jarayoniga jalb qilindi.

Olimlar klinik sinovlar chog'ida har bir ishtirokchidan qon tahlili namunalarini olib, barcha organlarning biologik yoshini ko'rsatadigan 850 dan ortiq oqsilni aniqladi.

Yakunida 50 va undan katta yoshdagi odamlarning 18,4 foizida kamida bitta organ odatdagidan sezilarli darajada tezroq qarishi ma'lum bo'ldi. Bu, kelgusi 15-yil ichida ushbu ichki a'zoda jiddiy kasalliklar rivojlanish xavfi ortadi, deganidir.

60 yoshdan katta aksariyat ishtirokchilarda esa bir vaqtning o'zida ikki organ tezroq qariyotgani kuzatildi. Bu ularda o'lim xavfi olti yarim baravar yuqoriligini anglatadi.

Tadqiqotchilar, agar miya tez qarisa, 5-yildan keyin xotira 1,8 marta yomonlashadi, yurakning keksayish jarayoni jadallashsa, yurak yetishmovchiligi ehtimoli 2,5 baravar oshadi, degan xulosaga kelishdi.

## SARATONNI BIR SONIYADA DAVOLASH MUMKINMI?

AQSHning Pensilvaniya universiteti olimlari saraton kasalligini davolashga qaratilgan yangi usulni sinovdan muvaffaqiyatli

o'tkazdi.

Aytish joizki, kimyoterapiya bugungi kunda onkologik xastaliklarga qarshi asosiy vositalardan biri. Buning uchun odatda foton nurlanish usulidan keng foydalaniladi.

Biroq so'nggi izlanishlar flesh-terapiya deb nomlangan proton nurlanish samaradorligi yuqoriligini tasdiqlamoqda. Chunki bu usul sog'lom to'qimalarga kamroq zarar yetkazishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, flesh-terapiya an'anaviy nur muolajalariga nisbatan nojo'ya ta'sirlar xavfini uchdan ikki qismga kamaytiradi.

Qolaversa, davolash kursi faqat bir martalik va uning davomiyligi atigi bir soniyaga teng. Zarrachalar massasi katta bo'lganligi sababli proton nurlari bemorning kasallikdan zararlangan qismiga aniqroq yo'naltiriladi. Bu esa qo'shni to'qimalar va organlarga minimal darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Olimlar proton nurlanishdan foydalanish metodologiyasi va ekspress seanslar uchun optimal dozalarni ishlab chiqdi. Tez orada flesh-terapiya saraton muolajasida keng ommalashishi mumkin.

## GIPERTONIYADAN SAMARALI HIMOYALANAMIZ!

AQSHning Kaliforniya universiteti olimlari 5100 kishi ishtirokida o'tkazilgan 30-yillik tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Ushbu xulosalar jismoniy faollik katta yoshli kishilarda gipertoniya rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini aks ettiradi.

Tadqiqot avvalida 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan qatnashchilarning hayotiy faoliyati tahlil qilindi. So'ngra ularning 40 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan davrdagi salomatlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

Yakunda gipertoniyaning oldini olish uchun yoshlikda haftasiga kamida besh soat jismoniy mashq qilish kerak, degan xulosaga kelindi.

### Xo'sh, bu yangilikning o'ziga xos jihati nimada?

Gap shundaki, ushbu mavzuda avval ham qator izlanishlar olib borilgan.

Ularga tayanib, shifokorlar kelgusida qon bosimi bilan bog'liq muammolarga duch kelmaslik uchun haftada 150 daqiqa o'rtacha yoki 75 daqiqa intensiv jismoniy faollikni tavsiya qiladi.

Yangi tadqiqot esa bu ko'rsatkichni taxminan ikki baravar oshirish zarurligini tasdiqladi. Ya'ni yosh o'tishi bilan qon bosimi xastaliklaridan aziyat chekmaslik uchun kuniga atigi bir soat badantarbiya va yengil jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish kifoya.

Qolaversa, mutaxassislar gipertoniya himoyalashda boshqa profilaktik usullar, jumladan, tuz iste'molini kamaytirish, vazni nazorat qilish, spirtli ichimliklardan tiyilish va chekishni tashlash muhimligini ta'kidladi.

## POMIDORDAN COVID-19 VAKSINASI YARATILDI

O'zbek olimlari tomonidan genetik vektorlar va pomidor o'simligi asosida koronavirus infeksiyasiga qarshi birinchi marta pomidor o'simligidan to'g'ridan to'g'ri iste'mol qilinadigan yangi avlod COVID-19 vaksinasi yaratildi.

Olimlar tomonidan

koronavirusning S1 antigen oqsilini kodlovchi gen fragmenti maxsus vektorlarga joylashtirilib, pomidor xujayrasiga genomiga kiritildi. Bu xujayralardan S1 antigeni oqsilini muntazam ishlab chiqaruvchi pomidor o'simligi olindi. Bunday o'simliklardan olingan pomidor mevasida 0.77 mkg/gr miqdorida turg'un S1 antigen oqsili sintez bo'lishi ko'rsatib berildi va TOMAVAC vaksinasi sifatida tanlab olindi.

Yaratilgan TOMAVAC vaksinasi sinovlari sichqonlar va ko'ngilli insonlar qon zardobida (IgG) va ichakda yuqori miqdordagi neytrallovchi antitanachalar (IgA) hosil bo'lishini isbotladi.



Bunda tajriba sichqonlarida vp ko'ngillilarda salbiy nojo'ya ta'sirlar kuzatilmadi.

Ushbu tadqiqot TOMAVACni ikki bosqichli (ichak shilliq pardasi va qonda) himoyani ta'minlovchi xavfsiz vaktsinaligini ko'rsatdi va u birinchi to'g'ridan to'g'ri istyemol qilinadigan COVID-19 vaktsinasi sifatida ilmiy hamjamiyatga taqdim etildi.

Muhimi, yaratilgan vektor tizimi va tajriba asosida, zarur hollarda, mamlakatimizda turli infeksiyalarga qarshi vaktsinalarni qisqa muddatlarda yaratish va joriy etish imkoniyati va yangi avlod mutaxassislari shakllantirildi.

Vaksina ustidagi tadqiqotlar xorijning nufuzli "Frontiers in Nutritional Immunology" (IF=5.0) jurnalida nashr qilinib, sichqonlarda hamda ko'ngilli insonlarda o'tkazilgan birinchi faza immunogenlik va bioxavfsizlik sinovlari natijasi e'lon qilindi.

S.TURSUNOV jurnalist.



## Institutimiz hayotidan

### RASMLAR TANLOVNING G'OLIBLARI ANIQLANDI



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan institutimizda o'tkazilgan rasmlar tanloviga kelgan eng yaxshi suratlarini ovozga qo'ygan edik.

Sizlarning ovozlaringiz bilan biz g'oliblarni aniqladik va talaba-yoshlarimizning naqadar faol ekanligiga yana bir karra amin bo'ldik.

Shuning uchun aslida ularning barchasi g'olib!

Ular bilan tanishing:

4-o'rin: Xalqaro fakultet talabasi S.Dinakarah;

3-o'rin: Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti talabasi M.Vahobov;

2-o'rin: Pediatriya fakulteti talabasi F.Umarov;

1-o'rin: Davolash ishi fakulteti talabasi H.Abduraimova.

G'oliblarimiz Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda taqdirlandilar.

## «MENING BIRINCHI KITOBIM»



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti tyutori D.Qodirova tomonidan 3-sonli talabalar turar joyida yashovchi talabalar ishtirokida «Mening birinchi kitobim» mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.

Talabalar turar joyi kutubxonachisi F.Davronova talaba-yoshlarga kitob mutolaasi xususida gapirib, eng yaxshi, noyob badiiy asarlarni mutolaa uchun tavsiya qildi.



Institutimiz Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti koordinatori ham o'z fikrlari bilan o'rtoqlashib, ma'naviy dunyoning boyishi uchun mutolaaning o'rni beqiyosligini tushuntirdi.

Tyutor D.Qodirovaning birinchi o'qigan kitobi haqidagi so'zlari talabalarni mutolaaga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi.

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Matbuot xizmati.**

2022-yil 18-martda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan «O'zbekiston tibbiyoti – inson qadri uchun» mavzusidagi ochiq muloqot o'tkazib, barcha tez tibbiy yordam tizimidagi eskirgan mashinalar zamonaviy avtomobillarga almashtirilishini ta'kidlagan edi. Shunga muvofiq, "Jizzakh Auto" tomonidan ishlab chiqarilayotgan A toifali "Volkswagen Caddy" tez tibbiy yordam avtomashinalari Respublika tez tibbiy yordam markazi viloyat filiallarining «103» xizmatlariga topshirilmoqda.



## Mulohaza

# YANGI TEZ YORDAM MASHINALARI KELDI, ENDI NIMA O'ZGARADI?

Yangi tez yordam avtomobillari Respublika tez tibbiy yordam markazi Farg'ona viloyat filialiga ham bosqichma-bosqich berilmoqda.

Bugunga kelib, filial avtoparkida 70 ta "Volkswagen Caddy", 31 ta "Hyundai", 11 ta "Nissan", 3 ta "Toyota", 192 ta "Damas" avtomashinalari 307 ta tibbiy brigadalarga xizmat qilib kelmoqda. Demak, asta-sekin tez tibbiy yordamda "Damas" rusumli avtomobillardan butunlay voz kechiladi. Ular zaxiraga olinadi, favqulodda holatlarga xizmat qilishi mumkin.

Hozirda tez tibbiy yordamning kechikishlari 10-12 foizdan 1-2 foizgacha kamaydi. Chaqiriqlarga yetib borish vaqti o'rtacha 25-30 daqiqa bo'lgan bo'lsa, hozir atigi 8-12 daqiqani tashkil qiladi.

Aholi tomonidan: "Shuncha avtomashina beriladiyu, lekin nega sezilmaydi?!" degan e'tirozli so'zlarni eshitib qolamiz gohida.

Nega shunday?

To'g'ri, oxirgi yillarda tizimga ko'p avtomashinalar berildi. Faqat ular eskirgan, nosoz avtomashinalarning o'rniga, almashtirish uchun berildi. Tibbiy brigadalar soni esa o'zgarishsiz qoldi. Normativ hujjatlarga ko'ra, ma'lum bir hudud aholi soniga qarab, ya'ni har 13 000 aholiga bitta tibbiy brigada shakllantiriladi. Yangi tibbiy brigadalar esa yil yakunidagi

yangilangan statistikadagi aholi soniga qarab tashkil etiladi.

«Tez tibbiy yordam kelyaptimi?» degan har bir qayta qo'ng'iroq boshqa fuqarolar kutishiga, tez tibbiy yordam kechikishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda tez yordam xizmati bilan bog'liq yana bir muhim masalaga to'xtalmoqchiman.

Endi qo'ng'iroqlar TTYO yagona «103» qisqa raqami orqali qabul qilinmoqda. Bunda siz birgina 103 raqamini terish orqali bir zumda tez tibbiy yordam operatoriga ulanasiz. U esa sizdan bemor haqidagi ma'lumot va manzilni olgan zahotiyiq tez tibbiy yordam brigadalariga uzatuvchi taqsimlovchiga uzatadi. Taqsimlovchi SSVning tegishli buyrug'i asosida 5 xil toifaga baholab (ya'ni binafsha rang hayotga tahdid soladigan kasallik yoki jarohat, qizil rang – shoshilinch qo'ng'iroqlar, sariq rang – tezkor, yashil rang – tezkorligi pastroq va ko'k rang – tezkor bo'lmagan kasalliklarga ajratilgan holatda) tegishliligi bo'yicha (bo'sh bo'lgan eng yaqin) tez tibbiy yordam brigadalariga uzatadi. Tibbiy brigadalar qabul qilgan zahotiyiq, zudlik bilan bemor tomon harakatlanadi.

Endi tasavvur qiling: soat 20:00 dan 23:00 ga qadar vaqt. Bir hududda taxminan 30 nafar operator ishlasa, kunning o'sha

vaqtida birdaniga 40 nafar fuqaro qo'ng'iroq qilsa, 30 operatorga 1 tadan to'g'ri kelsa, demak, 10 nafari kutish rejimida turishga majburdir (buni bizga fuqarolar tomonidan bo'layotgan e'tirozdan bildik).

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, o'sha 40 nafar fuqaroning 20 nafari qayta qo'ng'iroq qilib, «Men sizga 20 daqiqa yoki yarim soat oldin bergan chaqiruvim nima bo'ldi. Tez yordam kelyaptimi?» deb qayta qo'ng'iroq qilgani aniqlandi. Ba'zida fuqarolardan hech qanday sababsiz haqoratli so'zlar, do'q-po'pisalar ham eshitiladi. Operator uni aniqlab bergunicha yana qancha 1-marta murojaat qilayotgan fuqarolar kutish rejimida turishga majbur bo'lmoqda.

So'zimiz yakunida aziz yurtdoshlarimizga yana shunday demoqchiman: "103" raqamiga qo'ng'iroq qildingizmi, ko'nglingiz to'q bo'lsin. Bizda hech bir fuqaro murojaati yo'q bo'lib ketmaydi. Siz, yaxshisi, tez tibbiy yordam kelgunicha bemorni xotirjam qilib, qo'lingizdan kelgunicha tinchlantirib, yordam berib turing.

Tez tibbiy yordam sababsiz kechikmaydi. Mabodo biroz kechiksa, demak, bilingki, qaysidir fuqaroga yordam berayotgan bo'ladi.

**Azamat ABDURAHMONOV,**  
Respublika tez tibbiy yordam markazi Farg'ona

# “SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA: INSTITUTINING MALAKALI PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, TALABALARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.



## JIGAR KISTASI:

**Jigar kistalari - bu jigar to‘qimalarida rivojlanishi mumkin bo‘lgan suyuqlik bilan to‘ldirilgan qoplar bo‘lib, zararlangan odamlar uchun bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.**

## KELIB CHIQISH SABABLARI, ALOMATLARI, TASNIFI HAMDA DAVOLASH USULLARI

### DAVOLASH

Jigar kistalarini davolash ularning hajmi, belgilari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarga bog‘liq. Aseptomatik va kichik kistalar aralashuvni talab qilmasligi mumkin va vaqt o‘tishi bilan kuzatilishi mumkin. Biroq, simptomatik yoki katta kistalar davolanishni talab qilishi mumkin. Aspiratsiya, igna yordamida kistadan suyuqlikni olib tashlashni o‘z ichiga olgan protsedura vaqtinchalik yordam berishi mumkin.

**Og‘irroq holatlarda kista fenestratsiyasi yoki jigar rezeksiyasi kabi jarrohlik variantlari ko‘rib chiqilishi mumkin. Polikistik jigar kasalligi kontekstida kista o‘shini sekinlashtirish va simptomlarni yengillashtirishga qaratilgan tibbiy davolash usullari o‘rganilmoqda.**

### XULOSA


Jigar kistalari ularning sabablari, belgilari, tasnifi va davolash usullarini har tomonlama tushunishni talab qiladigan murakkab tibbiy muammodir. Ushbu maqola klinitsyenlar, tadqiqotchilar va jigar kistalaridan zarar ko‘rgan shaxslar uchun qimmatli manba bo‘lib, ushbu holatni tashxislash va boshqarishni yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan sa‘y-harakatlarga hissa qo‘shadi. Jigar kistalari yaxshi va aseptomatikdan murakkab va potensial hayot uchun xavfli bo‘lgan turli xil sharoitlarni ifodalaydi. Jigar kistalarining sabablari, belgilari, tasnifi va davolash usullarini tushunish klinitsyenlar uchun ongli qarorlar qabul qilish va zararlangan shaxslarga optimal yordam ko‘rsatish uchun juda muhimdir. Ushbu sohada olib borilayotgan izlanishlar kista shakllanishining asosiy molekulyar mexanizmlarini ochish va bemorning natijalarini yaxshilash uchun maqsadli terapevtik strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

**Jamshidbek USMONOV,**  
Davolash ishi fakulteti, 4-kurs talabasi

### SABABLARI

Jigar kistalari turli xil etiologik omillar ta‘sirida paydo bo‘lishi mumkin, bunda genetik moyillik asosiy omil hisoblanadi. Irsiy holat bo‘lgan polikistik jigar kasalligi (PLD) ko‘pincha bir nechta jigar kistalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Boshqa sabablar orasida tug‘ma kasalliklar, masalan, Karoli kasalligi, o‘t yo‘llarining atreziyasi va xoledox kistalari mavjud. Echinococcus lenta qurti sabab bo‘lgan parazitlar infeksiyalar ham jigarda kistalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, oddiy jigar kistalari aniq sabablarsiz rivojlanishi mumkin, ammo yosh, jins va gormonal ta‘sirlar rol o‘ynashi mumkin.

### ALOMATLAR



Jigar kistalari ko‘pincha aseptomatik bo‘lib, ularni erta bosqichlarda aniqlash qiyin. Biroq, kistalar hajmi yoki sonining o‘shishi bilan ular simptomlarni ko‘rsatishi mumkin. Umumiy simptomlar orasida qorin og‘rig‘i yoki noqulaylik, ayniqsa, jigarining kengayishi tufayli yuqori o‘ng kvadrantda mavjud. Bundan tashqari, bemorlarda

ko‘ngil aynishi, qusish va to‘liqlik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Og‘ir holatlarda infeksiya, yorilish yoki qo‘shni organlarning siqilishi kabi asoratlar paydo bo‘lishi mumkin, bu esa sariqlik yoki astsitga olib keladi.

### TASNIFI



Jigar kistalarini kelib chiqishi, hajmi va klinik xususiyatlariga ko‘ra turli toifalarga bo‘lish mumkin. Oddiy jigar kistalari, eng keng tarqalgan turi, silliq qoplamali va ichki septatsiyalari bo‘lmagan suyuqlik bilan to‘ldirilgan qoplardir. Boshqa tomondan, polikistik jigar kasalligi butun jigarda turli o‘lchamdagi ko‘plab kistalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, parazitlar keltirib chiqaradigan yuqumli kistalar alohida tasniflanadi. Ultratovush, kompyuter tomografiyasi va MRIni o‘z ichiga olgan tasvirlash usullari jigar kistalarini tasniflash va tashxislashda yordam beradi.

# Xorij tibbiyoti:

## ISROIL



**Yahudiylar aniq fanlarda ilg'orliklarini isbotlaganlar. Bundan tibbiyot ham mustasno emas. Tibbiyot turizmi degan tushunchani industriya darajasiga ko'targan davlatlardan biri va dastlabkilari qatorida Isroil turadi. Onkologiya, mikrojarrohlik, qon tomirlar jarrohligi, kardioxirurgiya sohalarida bu davlat tibbiyoti juda ilgari ketgan.**

### MAJBURIY DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI TIZIMI

Mamlakatning 18 yoshdan oshgan barcha fuqarolari maqsadli mas-briut solig'i shaklida sug'urta mukofotlarini to'lashlari shart. Mas Briut solig'i, ish haqining 7 foizi «Sog'liqni saqlash solig'i» bo'lib, u maoshdan ushlab qolinadi va Bituach Leumi (Isroil milliy sug'urta instituti) ga o'tadi.

Mamlakatning har bir fuqarosi o'z xohishiga ko'ra, taqdim etilgan ro'yxatdan bemor tashrif buyuradigan muassasa va kerakli shifokorni tanlashi mumkin.

Isroilning barcha fuqarolari «Salomatlik savatini» olishlari mumkin. Bu borada barcha isroilliklar teng huquqda.

Asosiy xizmatlar to'plamiga quyidagilar kiradi:

Mutaxassis bilan maslahatlashuv. Bunga terapevt, pediatr yoki mutaxassis - urolog, gastroenterolog, otorinolaringolog va boshqalar bilan maslahatlashish kiradi.

Diagnostika jarayonlari. Bunga testlarni topshirish kiradi. Odatda tibbiy sug'urta fondlarida laboratoriyalar mavjud. Agar ular tadqiqot o'tkaza olmasalar, bemor boshqa laboratoriyaga yo'naltiriladi. Xarajatlar tibbiy sug'urta jamg'armasi tomonidan qoplanadi. Instrumental tekshiruvlar sifatida tomografiya, KT, mammografiya va boshqalar qo'llaniladi.

Asosiy paket kasalxonaga yotqizishni ham o'z ichiga oladi, ammo shifoxona yotoqlari yetishmasligi tufayli bunday davolash juda kamdan kam hollarda qo'llaniladi. Iloji bo'lsa, bemorga ambulator davolanish buyuriladi. Jarrohlik yordamini ko'rsatishda ba'zi qiyinchiliklar paydo bo'ladi - asosiy xizmatlar to'plamiga ega bo'lgan bemor davlat shifoxonasida o'z navbatini kutishi kerak. Kengaytirilgan sug'urta egalari bunday muammolarga duch kelmaydilar.

Oliy toifali mutaxassislarning ham diplom bilan kelib, darhol ishga kirishishi mumkin emas. Siz bir qator protseduralardan o'tishingiz va ishlash uchun ruxsat olishingiz kerak.

Isroil Sog'liqni saqlash vazirligining talablariga ko'ra, shifokorlar bir necha toifalarga bo'lingan:

#### BIRINCHISIGA-

Tajribaga ega bo'lmagan oliy ma'lumotli mutaxassislir kiradi. Bular amaliyot o'tamagan bitiruvchilardir.

#### IKKINCHI TOIFAGA-

oliy tibbiy ma'lumotga ega va kamida 12 oy ish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar kiradi.

#### UCHINCHI TOIFAGA

14 va undan ortiq yil ishlagan tibbiyot oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari kiradi.

Isroilda shifokor sifatida ishlash uchun litsenziya olish uchun ariza beruvchining o'tishi kerak bo'lgan tartib, bu shaxs qaysi tibbiyot mutaxassislari toifasiga tegishli ekanligiga bog'liq.

Xorijiy tibbiyot fakultetlarining o'zlari o'qigan mamlakatda stajirovkadan o'ta olmagan bitiruvchilari davlat imtihonini topshirgandan keyingina litsenziya olishlari mumkin.

Keyinchalik, bunday mutaxassis tan olingan tibbiyot muassasalaridan birida bir yillik amaliyot o'tashi kerak.

Moddiy daromad nuqtayi nazaridan, shifokorlar Isroilda juda yaxshi yashaydi. Quyidagi misol vaziyatni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Rezidenturada o'qishni tugatgandan so'ng, tibbiy mutaxassisning maoshi oyiga taxminan 5000 AQSH dollarini tashkil qiladi.

Shifokorlarning o'rtacha ish haqi nafaqat bilimiga, balki tajribasiga ham bog'liq.

#### Mutaxassislarning oylik maoshi qancha? (AQSH dollari)

Stomatolog	8000-10 000
Jarroh	7000-9000
Pediatr	6000 - 8000
Oilaviy shifokor	5000-7000
Hamshira	4000 - 4500

Isroil tibbiyoti dunyodagi eng yaxshi deb hisoblanadi: u Gonkong, Singapur va Yaponiyadan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Isroilning Forbes jurnali har yili mamlakatning eng yaxshi shifokorlari ro'yxatini e'lon qiladi. Reytinglar shifokorlar tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun samarali va ishonchli usullardan foydalangan holda ma'lumotlar yig'iladi, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.



Isroilda eng yaxshi shifokorlar orasida barcha mutaxassisliklar vakillari bor: onkologlar, jarrohlar, nevrologlar, oftalmologlar, radiologlar va boshqa ko'plab sohalar. Ularning barchasi odatda nafaqat oliy ma'lumotga, balki aspirantura va doktoranturaga ham ega. Eng yaxshi tibbiyot mutaxassislari ro'yxatiga professorlar ham kiradi.

Bularning barchasi mahalliy aholiga ham, xorijdan yordam so'rab kelayotganlarga ham zarur tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Ko'pincha shifokor bilan birinchi maslahat bepul. Bunda nafaqat bemor tekshiriladi, uning shikoyatlari tinglanadi, reja ham tuziladi va davolanish uchun to'liq xarajatlar hisoblab chiqiladi.

### TIBBIY XIZMAT NARXLARI

Isroildagi tibbiyot muassasalarida narxlar mamlakat Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sxema bo'yicha tuziladi. Buning uchun ko'plab boshqa mamlakatlarda o'zini isbotlagan xalqaro DRG tizimi qo'llaniladi. Shuni hisobga olish kerakki, Isroilda xizmatlar narxi Yevropa mamlakatlari va Amerikaga qaraganda taxminan 40 foizga arzon va sifati ham yuqori.

Telefon orqali maslahat 500 AQSH dollari (lekin veb-sayt orqali qo'ng'iroqqa buyurtma qilsangiz, bu bepul);

Klinikada birlamchi tashxis 1200 AQSH dollari;

Kompyuter tomogrammasi 400 AQSH dollari;

PYET-KT 1 200 AQSH dollari;

MRT 1100 AQSH dollari;

Jarrohlik operatsiyalari 3000 AQSH dollari;

Da-Vinci Robot avtomatlashtirilgan tizimi yordamida operatsiyalar individual hisoblab chiqiladi;

Kimyoterapiya 2200 AQSH dollaridan;

Immuniterapiya 1900 AQSH dollaridan;

Maqsadli terapiya 2000 AQSH dollaridan;

Saraton kasalligini davolash o'simta turiga qarab hisoblab chiqilgan.

**visasam.ru va sourasky.com manbalaridan foydalanildi.**



#### JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:  
Farg'ona jamoat  
salomatligi tibbiyot  
instituti

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
Farg'ona viloyati hududiy  
boshqarmasi tomonidan  
6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**  
NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**

Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida  
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'ona shahar,  
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy  
Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

fmiioz@mail.ru

fjsti.uz



GAZETA BEPUL  
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ  
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 14.01.2024 yil, soat 16 00 da  
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500